

Ta'lim sifati va samaradorligi sari

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 24 maydagi "Qishloq va suv xo'jaligi tarmoqlari uchun muhandis-texnik kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3003-sonli qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligining 2018 yil 1 avgustdagi "Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash to'g'risidagi" 74-sonli buyrug'i ijrosini ta'minlash maqsadida Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti huzuridagi Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazida Suv xo'jaligi vazirligi tasarrufidagi "Suv qurilish invest" davlat unitar korxonalari direktorlari, "Meliorativ ekspeditsiya", "Nasos stansiyalari boshliqlari", "Suv omborlari boshliqlari " va tuman Irrigatsiya bo'limi boshliqlari uchun malaka oshirish kursi tashkil qilinmoqda.

Malaka oshirish jarayoniga ishlab chiqarish korxonalaridan ko'p yillik tajribaga ega bo'lgan yetakchi mutaxassislarning jalb etilishi o'quv jarayonini sifatli tashkil etilishini ta'minlashga xizmat qilmoqda. Markaz xodimlari tinglovchilarning darsdan bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish maqsadida Toshkent shaxrida olib borilayotgan ulkan bunyodkorlik majmualariga, ma'naviyat va ma'rifat o'chog'i bo'lgan muzeylar teatrlarga sayohatlar uyushtirib tinglovchilarning madaniy hordiq chiqarishlariga ham o'zining munosib hissasini qo'shishmoqda.



PKQT va UMO tarmoq markazi bo'limi boshlig'i Javlonbek Qutlimurotov axboroti

Institut Matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov